



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo

OpenAIRE

Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar

doi® digital object
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muammolari va istiqbollari

Asror Jo‘rayev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talabas

asrorjorayev14@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy-huquqiy asoslari, sarmoyaviy muhitni shakllantiruvchi omillar va sohadagi mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, energetika va sanoat sohalaridagi investitsion loyihalarning samaradorligi hamda xalqaro tajriba asosida investitsiya faolligini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning dolzarb masalalari, mavjud muammolari hamda istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, huquqiy-me‘yoriy bazaning takomillashuvi va iqtisodiy islohotlarning investitsiya oqimiga ta‘siri o‘rganilgan. Shuningdek, byurokratik to‘siqlar, infratuzilma muammolari, valyuta va moliyaviy xavflar kabi omillarning investitsion jozibadorlikka salbiy ta‘siri yoritilgan. Maqolada O‘zbekistonning xalqaro investitsiya bozoridagi o‘rmini mustahkamlash, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash hamda innovatsion va raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, iqtisodiy islohotlar, xorijiy investorlar, investitsiya siyosati, iqtisodiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, infratuzilma, iqtisodiy barqarorlik, innovatsion iqtisodiyot.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xorijiy investitsiya – bu chet ellik investorlar tomonidan foyda olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida yo‘naltiriladigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklardir. O‘zbekistonda ushbu jarayonni tartibga soluvchi asosiy hujjat 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun hisoblanadi **Aktivlarning davlat tomonidan asossiz olib qo‘yilmasligi.** Ushbu qonun doirasida investorlar uchun quyidagi asosiy kafolatlar ta‘minlangan:

So‘nggi yillarda O‘zbekistonga kirib kelayotgan sarmoyalar hajmi sezilarli darajada o‘shib bormoqda. Xususan, 2024-yilga kelib jami investitsiyalar hajmi 18.2 mlrd. Dollarga yetishi kutilmoqda.

2021-yildan 2024-yilgacha jami investitsiyalar hajmi 10.5 mlrd dollardan 18.2 mlrd dollargacha oshgan. Bu salkam ikki barobar o‘shish demakdir.

Jami investitsiyalarning asosiy qismini (14.5 mlrd dollar) aynan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etmoqda. Bu iqtisodiyotga yangi texnologiyalar kirib kelayotganidan dalolat beradi. Investitsiyalarning Yalpi Ichki

Mahsulotdagi ulushi 28% dan 35% ga ko‘rsatkich iqtisodiyotning jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotganini isbotlaydi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, sintez, taqqoslash, statistik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonlari milliy va xalqaro tajribalar asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida investitsion muhitga ta‘sir etuvchi iqtisodiy, huquqiy va institutsional omillar kompleks ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, davlat statistika ma‘lumotlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirish va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Olingan natijalar asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1-jadval: Investitsiya faolligini oshirish bo‘yicha taklif etilayotgan choralar

Yo‘nalish	Taklif etilayotgan chora-tadbirlar	Kutilayotgan natija
Huquqiy	Investitsiya kodeksini qabul qilish	Investorlar ishonchi va reyting ortishi
Infratuzilma	Ready-to-build” (tayyor maydonlar) tizimi	Loyihalarni ishga tushirish vaqti 2 barobar qisqaradi
Raqamlashtirish	Invest in Uzbekistan” yagona portali	Korrupsiya va byurokратиyaning kamayishi

Investitsiya kodeksining qabul qilinishi investorlar uchun qonuniy himoyani kuchaytiradi va xalqaro reytinglarda mamlakatimiz nufuzini oshiradi. “Ready-to-build” (tayyor maydonlar) tizimi orqali investorlar yer va kommunikatsiya bilan bog‘liq hujjatlarga vaqt sarflamaydi, natijada loyihalar 2 barobar tezroq ishga tushadi. Yagona investitsiya portali orqali inson omili kamaytiriladi, bu esa korrupsiya va byurokратiyaga chek qo‘yib, ish jarayonini shaffof qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun xorijiy investitsiyalar shunchaki mablag‘ emas, balki rivojlanishning asosiy drayveridir. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda sarmoyadorlar uchun barcha huquqiy asoslar yaratilgan, ammo jarayonni yanada jadallashtirish uchun faqat qonunlar yetarli emas. Mening fikrimcha, kelgusida asosiy e‘tiborni investitsiya loyihalarini raqamlashtirish va hududlardagi infratuzilmani (elektr, gaz, yo‘l) yaxshilashga qaratish lozim. Agar investor o‘z loyihasini byurokратiyasiz va tayyor sharoitda boshlay olsa, bu iqtisodiyotimizning barqaror o‘shishiga va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Zero, to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiya – ertangi kunning mustahkam poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adam Smith. Xalqlar boyligi (The Wealth of Nations).
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Tasvir, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U.V. Iqtisodiy nazariya. (Darslik) – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2020. – 788 b.